TURKISTON TA’LIM INFRATUZILMASI TARIXIGA DOIR
(Davriy matbuot materiallari asosida)

Jabborova Oydin

E-mail: oydinjabborovauzb@gmail.com

XX asr boshlaridagi Turkiston davriy matbuoti, xususan, jadid va rasmiy matbuot sahifalari o‘lka ta’lim infratuzilmasi hamda uni isloh qilish masalalari keng muhokama qilingan muhim tarixiy manba hisoblanadi. Jadid matbuotida ta’lim mavzusida eng ko‘p maqolalar yozilgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Ma’lum bo‘ladiki, birgina 66 ta soni chop qilingan “Sadoi Turkiston” gazetasida 100 dan ziyod maqola va felyetonlar maktab va ta’lim islohiga bag‘ishlangan.

“Shuhrat” gazetasidagi bir maqolada ham maktab o‘quvchilarining betarbiyaligi, urushib, talashib yurishi va xulqi qattiq tanqid qilinadi[1].

Toshkentlik Sayfi Majidov ham o‘z mahalallasidagi eski usuldagi maktab va madrasalardagi o‘quvchilarning 20 yildan kam o‘qiganlarning savodi haqiqatdan to‘liq chiqmasligini, bu usuli qadimda o‘qigan o‘quvchilarning imomatlikdan boshqasiga yaramay qolishini ta’kidlab yozadi[2]. Bundan ko‘rinadiki, usuli qadimda to‘liq savodi chiqishi uchun 10 yildan ko‘proq muddat talab qilingan. Bunga asosiy sabablardan biri fundamental o‘quv dasturi tuzilmaganligida edi.

Matbuotda maktab va madrasalarning taraqqiydan ortda qolib ketyotganini asoslab berishga ko‘p bora harakat qilinadi. Birinchi sababi sifatida maktablarga ajratilgan vaqf mulklarining yetarlicha emasligi, maktab va madrasalarda aniq bir o‘quv tizimining yo‘qligi va maktabga tahsil olgani kelgan o‘quvchilarga qanday muomala qilmoq kerakligini kelishib olingani afzal ekanligi haqida fikr-mulohazalar yuritiladi[3].

Quruq yodlash va zamondan ortda qolgan eski darslik va kitoblarni o‘qitish bilan ta’limda taraqqiyga erishib bo‘lmasligi ko‘rinib turgan masala edi.

[1] Shuhrat, 1907, 4-son.
[2] Sadoi Turkiston, 1914, 13-son.
[3] Musulmon maktablarida o‘qitish // Turkiston viloyati gazeti, 1906, 145-son.

Taraqqiyparvarlar ham maktablarni yuzaki isloh qilishga qarshi chiqishgan. Masalan, 1907-yil Munavvarqori Abdurashidxon o‘gli taklifi bilan mahoratli bir rus pedagog Toshkent shahriga keladi. U shahardagi yangi va eski maktablar islohoti bilan tanishib chiqadi. “Turkiston viloyati gazeti”ga yozgan maqolasida toshkentlik maktabdor Mulla Usanxo‘janing mkatabini qattiq tanqid qilib yozadi[4].

Jadid maktablari ochilishi bilan ba’zi joylarda qadim maktablari bo‘shab qoldilar. Natijada qadim va jadid maktabdorlari o‘rtasida jiddiy qarama-qarshiliklar paydo bo‘ldi. Bunga mutaassib qozi mulla va ulamolar ham qo‘shildilar. “Turkiston viloyati gazeti”da yangi usul maktablarini bid’at bir ish, bu turdagi maktablar kerak emasligi haqida shunday tanqidiy maqola chop qilinadi: “Usuli jadid qayerdan chiqdi? Masalan ota – bobomiz usuli qadim ila o‘qub mullo bo‘lg‘onlar. Va biz ham usuli qadim o‘qub bir nima bilib edik. Usuli jadid degan bir tariqa bid’atdirki, yaqin fursatda chiqmishdir”[5]. Bu kabi qarshiliklarga qaramasdan ma’rifatparvarlar yangi usul maktablarini kengaytirishda davom etishdi.

Turkistonda mavjud bo‘lgan jadid maktablarining jami soni va ular qayerlarda ochilib faoliyat yuritganligi haqida hozircha to‘liq va aniq ma’lumot yo‘q. Lekin 1903-yilda birgina Toshkentda 20 ta (shundan 2 tasi o‘rta), jadid maktablari bo‘lgan. Ma’lumki, 1909-yildan keyin jadid maktablari qattiq nazorat ostiga olinadi va arzimas bahonalar bilan yopiladi.

Jadid matbuotida Toshkent shahridagi yangi usul maktablariga berilgan xayriya pullari haqida ham ma’lumotlar berib ketiladi. “Sadoi Turkiston gazetasi”da yozilishicha, Shayxontohur dahasi Devonbegi mahallasidagi muallim Eshonxo‘ja maktabiga 150 so‘m, Sebzor dahasidagi Taxtapul mahalalsi Sobirjon va Shokirjon Rahimiy muallimlar maktabiga 100 so‘m, Tarnovboshi mahallasi muallimi Munavvarqori Abdurashidxon o‘g‘li maktabiga 250 so‘m iona (xayriya puli) ajratilganligi bayon qilinadi[6]. Iona masalasi bo‘yicha Mahmudxo‘ja Behbudiy ham matbuotda bir qancha maqolalar e’lon qiladi. Ulardan birida

[4] Turkiston viloyati gazeti, 1907, 66-son.
[5] Turkiston viloyati gazeti, 1908, 9 -son.
[6] Maktablarga iona // Sadoi Turkiston, 1914, 1-son.

Turkistonni jaholat botqog‘idan chiqarish uchun Turkistonlik boylarni ilm uchun ehson qilishga undaydi. “Ehtiyoji millat” sarlavhali maqolada agar yilda o‘nta boy ming so‘mdan bersa, Toshkentda 25 bola uchun kechki va ertalabki maktab ochsa bo‘ladi va yiliga 50 ta Toshkentda yashaydigan bolaning savodi chiqishini ta’kidlaydi[7].

“Taraqqiy”da Toshkentdagi yangi usul maktablardan birida 4-sinf o‘quvchilari imtihoni haqida yoziladi. Imtihonda ulamolar, mahalla kattalari, otalardan tashkil topgan 100 dan ortiq kishi to‘planadi. O‘quvchilar Qur’onni tajvid bilan o‘qishni, Ibodati islomiya, imlo, hisob, lug‘at kabi fanlardan imtihon qilinadi. Maqola muallifi muallim Shokir Muxtorov o‘zi imtihon olgani, imtihon jarayoni shaffof o‘tganini va bir o‘quvchi 2-3 yil ichida maktabda o‘qish, yozishni o‘rgangani, Qur’ondan savodi chiqqani hamda o‘zi musulmon ekanini anglaganini ravon nutqda gapirib berganini hayratlanib bayon qiladi[8]. Maqola tahlilidan ko‘rinadiki, yangi usul maktablarida usuli qadimga qaraganda tez savod chiqarilgan va o‘quvchilarning fikrlashi ham birmuncha teranlashganini e’tiborga molikdir.

Matbuot sahifalarida rus-tuzem maktablari faoliyati haqida doimiy maqolalar berib borilgan. Bu turdagi maktablar ayniqsa “Turkiston viloyati gazeti”da targ‘ub qilingan. Gazetada rus-tuzem maktablari soni va holati haqida yangiliklar berib borilgan. Matbuotda Toshkentdagi rus-tuzem maktablaridagi yillik imtihon olish jarayonlari va dars usullari muntazam yoritilgan.

Milliy matbuotda rus-tuzem maktablarining o‘quv dasturi haqida ma’lumotlar berib borilgan. Ularda yangi fanlar – islom dini asoslari, rus tili, hisob, geografiya kabi zamonaviy fanlar bo‘lgan. 1914-yil Toshkent shahridagi 2 ta rus-tuzem maktablarining o‘quv dasturiga musiqa fani darslari ham kiritilgan. Bunday maktablarning rashidiya qismida (boshlang‘ich sinf) tabiat, hayvonot olami fanlari ham bo‘lgan. Yana bir e’tiborli jihati bu maktab o‘quv dasturi puxta ishlab chiqilganligi va maktabda dars beradigan o‘qituvchilarning yangicha pedagogik

[7] Behbudiy M. Ehtiyoji millat // Samarqand, 1913, 7-son.
[8] Muxtorov Sh. Imtihon boqiasi // Taraqqiy, 1906, 10-son.

o‘qitish usullaridan xabardorligi edi. Bu maktablarda rus tili va adabiyotini o‘rgatishga alohida urg‘u berilgan. Umumiy Turkiston hududida bunday maktablar soni eng ko‘pi Toshkent shahrida edi. Toshkent shaharida rus-tuzem maktablari 30 yil ichida 8 taga ko‘paygan[9].

1909-yilda Toshkent shahri va boshqa joylardagi rus-tuzem maktablarida dars bergan G.Andreev Toshkent shahridagi rus-tuzem maktablarini yiliga 4-5 ta o‘quvhci bitiradi va ulardan deyarli hammasi tarjimon, kichikroq lavozimda bo‘lsa ham davlat xizmatchisi yoki savdo ishlarida rus tilini yaxshi bilishgani uchun ishlab keta olishganini yozadi[10]. Rus-tuzem maktablarining asosiy vazifasi ruslashtirish siyosati bo‘lgani sir emas. Bu maktablarda mutlaq yangi fanlar o‘qitilgan va mahalliy aholida shubha paydo bo‘lmasligi uchun din asoslari kabi fanlar kiritilgan edi. Rus-tuzem maktablari mustamlakachilikning g‘oyaviy quroli bo‘lishiga qaramay, mahalliy o‘quvchilarning yangicha fanlar bilan tanishish imkoniyatini bergan.

Maktab darsliklar va qo‘llanmalar chop qilish masalalalari ham ayni vaqtda muhim masalalardan bo‘lgan. Munavvarqori Abdurashidxon o‘g‘li “Adibi soniy” kitobining 1913-yildagi birinchi chiqqan kitobida hayvonlar rasmi borligi sababli kuchli tanqidga uchraydi[11]. Boisi islom dinida hayvonlar tasviri mavjud kitoblarni o‘qish makruh deb qaralgan.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, davriy matbuot eski usuldagi ta’limning kamchiliklarini qattiq tanqid qilish bilan birga, diniy va dunyoviy ilmlarni uyg‘unlashtirgan yangi usul jadid maktablarini keng targ‘ib etishda yetakchi minbar vazifasini o‘tagan. Shuningdek, matbuot sahifalaridagi imtihon jarayonlari, xayriya (iona) masalalari va darsliklar nashriga doir ma’lumotlar davrning ta’lim infratuzilmasi hamda jamiyatdagi ma’rifatparvarlik harakatining ko‘lamini xolis baholashga ulkan xizmat qiladi.

[9] Turkiston maktablari // Turkiston viloyati gazeti, 4-son.
[10] Андреев Г. Зрелый вопрос о русско-туземных школах / Г. Андреев // Туркестанский курьер, 1909. – № 7.
[11] Rasm va surat masalasi // Turkiston viloyati gazeti, 1910, 9-son.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduazizova N. Turkiston matbuot tarixi (1870–1917). – Toshkent: Akademiya, 2000. – 234 b.

2. Agzamxodjayev S., Ulugbekova Z. “Al-Isloh” jurnali – Turkistondagi islohotchilik harakatini o‘rganish bo‘yicha tarixiy manba (1915-1918-yillar). – Toshkent: “O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2021. – 160 b.

3. Do‘stqorayev B. O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi (1-qism: 1870–1917-yil noyabr). – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2009. – 378b.

4. Fayzullayev R. “Turkiston viloyati gazeti”ga tuzilgan bibliografik ko‘rsatkich. – Toshkent:Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008. – 108 b.

5. Nuriddinova F., V.Sobirova., Z.Solihov. Milliy matbuot sahifalarida. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999. – 108 b.

6. Tangirov O. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Toshkent “Eski shahar” qismi ma’muriy boshqaruvi va ijtimoiy holati. – Toshkent: Renessans press nashriyoti, 2022. – 176 b.